



<https://doi.org/10.70728/a.series.ijt.v08.i05.029>

QO‘QON ARXEOLOGIK YODGORLIKLARINI O‘RGANISH TARIXI VA MUZEYLASHTIRISH MUAMMOLARI (TEPAQO‘RG‘ON YODGORLIGI MISOLIDA)

Raxmatullaeva Saodat Ibragimovna

*Qo‘qon davlat universiteti
Tarix kafedrası o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada Farg‘ona viloyatining yirik tarixiy-madaniy markazi bo‘lgan Qo‘qon shahri hududidagi arxeologik yodgorliklarni o‘rganish tarixi va ularni muzeylashtirish muammolari Tepaqo‘rg‘on yodgorligi misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotda Qo‘qon shahrining tarixiy-arxeologik salohiyati, "Qo‘qon" davlat muzey-qo‘riqxonasi faoliyati, arxeologik yodgorliklarni muhofaza qilish va muzeylashtirish borasida O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilinadi. 2019-yilda moddiy madaniy meros milliy ro‘yxatiga kiritilgan va 2022-yilda arxeologik qazuv ishlari o‘tkazilgan Tepaqo‘rg‘on yodgorligini "Ochiq osmon ostidagi muzey"ga aylantirish istiqbollari yoritiladi. Yodgorliklarni ilmiy o‘rganishdagi kamchiliklar, ularni saqlash va jamoatchilikka taqdim etishdagi dolzarb muammolar va ularni hal etish yo‘llari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Tepaqo‘rg‘on, Qo‘qon arxeologik yodgorliklari, muzeylashtirish, "Qo‘qon" davlat muzey-qo‘riqxonasi, madaniy meros muhofazasi, muammo, yodgorlik, ochiq osmon ostidagi muzey, Farg‘ona vodiysi.

Аннотация. В статье рассматривается история изучения археологических памятников на территории города Коканда — крупного историко-культурного центра Ферганской области, а также проблемы их музеефикации на примере памятника Тепакурган. В исследовании анализируется историко-археологический потенциал города Коканда, деятельность государственного музея-заповедника «Коканд», а также реформы, проводимые в Республике Узбекистан в области охраны и музеефикации археологических памятников. Будут освещены перспективы превращения памятника Тепакурган, включенного в Национальный список материального культурного наследия в 2019 году и подвергнувшегося археологическим раскопкам в 2022 году, в «музей под открытым небом». Рассматриваются недостатки научного изучения памятников, актуальные проблемы их сохранения и представления общественности, а также пути их решения.

Ключевые слова: Тепакургон, археологические памятники Коканда, музеефикация, государственный музей-заповедник «Коканд», охрана культурного наследия, музей под открытым небом, Ферганская долина.

Abstract. This article analyzes the history of the study of archaeological monuments in the territory of the city of Kokand, a major historical and cultural center of the Fergana region, and the problems of their museumization using the example of the Tepakurgan monument. The study analyzes the historical and archaeological potential of the city of Kokand, the activities of the Kokand State Museum-Reserve, and the reforms being implemented in the Republic of Uzbekistan in the field of protection and museumization of archaeological monuments. The prospects for transforming the Tepakurgan monument, which was included in the National List of Intangible Cultural Heritage in 2019 and underwent archaeological excavations in 2022, into an "Open-Air Museum" are highlighted. The article examines the shortcomings in the scientific study of monuments, the current problems in their preservation and presentation to the public, and ways to solve them.

Key words: Tepa-Qurg'on, Kokand archaeological monuments, museumification, Kokand State Museum-Reserve, cultural heritage protection, open-air museum, Fergana Valley.

KIRISH. O'zbekiston Respublikasi o'zining ko'hna qadimiy boy tarixi va madaniy merosi bilan jahon hamjamiyatida alohida o'rniga ega. Mamlakatimiz hududida 7300 dan ortiq qadimiy me'moriy va arxeologik obidalar mavjud bo'lib, ularning muhofazasi va keng ommaga taqdim etilishi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan[1].

Qo'qon shahri Farg'ona vodiysining g'arbiy qismida joylashgan bo'lib, "Xo'qand", "Xovokand" nomlari bilan birinchi yozma ma'lumotlarda X asr yilnomalarida uchraydi [4]. Shahar Buyuk Ipak yo'lidagi muhim savdo markazi sifatida qadimdan rivojlanib, XVIII–XIX asrlarda Qo'qon xonligining poytaxti bo'lib, keng hududda nufuz qozongan. Yirik tarixiy ahamiyati tufayli Qo'qon shahri va uning atrofida ko'plab arxeologik yodgorliklar saqlanib qolgan. Ularning ichida Tepaqo'rg'on arxeologik yodgorligi bugungi kunda "Qo'qon" davlat muzey-qo'riqxonasi tarkibiga kiruvchi muhim ob'yekt sifatida rasmiy maqomga ega [5].

Tepaqo'rg'on yodgorligi shahar yoshini aniqlagani hamda qadimgi o'rda o'rnida joylashgani bilan ahamiyatlidir. Xo'qand milodiy era boshlarida nafaqat yirik shahar, balki kichik davlat poytaxti bo'lgan. Qo'rg'on xarobaga aylangach, uzoq yillar davomida qabriston bo'lgan va bu yerda ko'plab alloma, adib hamda mudarrislar dafn etilgan [6]. 2019-yilda moddiy madaniy meros ob'yektlari milliy ro'yxatiga kiritilgan va 2022-yilda arxeologik qazuv ishlari natijasida yodgorlik arkining tuzilishi aniqlangan ushbu ob'yekt O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2024-yil 11-iyuldagi Qo'qon shahriga tashrifida alohida e'tiborga sazovor bo'ldi [6].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Qo'qon shahri va Farg'ona vodiysi arxeologiyasini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy asosga ega bo'lgan asarlar XX asrning boshlaridan shakllanib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Arxeologiya institutining tashkil etilishi (1970) respublikada, jumladan Farg'ona vodiysida arxeologik tadqiqotlarni yanada kengaytirishga imkon berdi [7]. 70–80-yillarda institut jamoasi tomonidan vodiyni deyarli barcha hududlarida keng qamrovli arxeologik kuzatuv hamda qazuv ishlari o'tkazildi.

Farg'ona vodiysining antik davri arxeologiyasini o'rganishda O'zbek-Xitoy qo'shma xalqaro arxeologik ekspeditsiyasining 2012–2022-yillar davomida Mingtepa shahar xarobasida olib borgan tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etdi [8]. Bu borada, Farg'ona davlat universiteti hamda Qo'qon davlat universiteti qoshidagi arxeologiya bo'limlari ham viloyat yodgorliklarini o'rganishda faol ishtirok etmoqda.

"Qo'qon" davlat muzey-qo'riqxonasining o'zi ham arxeologiya sohasida faoliyat yuritib kelmoqda. Muzey 1959 yili Qo'qon shahar o'lkashunoslik muzeyi maqomini olgan bo'lib, vodiya qadimiyligi bo'yicha Farg'ona viloyat madaniyati va tarixi davlat muzeyidan keyin ikkinchi o'rinda turadi [9]. Muzey eksponatlari orasida Qo'qon va Farg'ona vodiysidagi arxeologik qazishmalardan topilgan moddiy madaniyat namunalari muhim o'rin egallaydi.

Tadqiqot metodologiyasini tarixiy-taqqoslash, tizimli tahlil qilish, hujjatli o'rganish va manbashunoslik usullari nuqtai nazaridan yondoshish tashkil etadi. Manba bazasini O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari, rasmiy statistik ma'lumotlar, "Qo'qon" davlat muzey-qo'riqxonasiga oid tarixiy materiallar, mavjud ilmiy maqolalar, rasmiy internet resurslari hamda Prezident matbuot xizmatining ma'lumotlari tashkil etadi.

NATIJA VA MUHOKAMA

1.Qo'qon shahrining tarixiy-arxeologik salohiyati.

Qo'qon shahri O'rta Osiyo arxeologiyasida o'ziga xos o'rniga ega. Arxeologik tadqiqotlarning guvohlik berishicha, Farg'ona vodiysi qadimgi ibtidoiy davrlardan insonning yashashi hamda rivojlanishi uchun qulay iqlim geografik sharoitiga ega bo'lgan hududlardan biri sanaladi. Hududda Miloddan avvalgi II–I ming yilliklardan boshlab o'troq dehqonchilik madaniyati ancha keng rivojlan. Farg'ona vodiysi o'z davriga ko'ra turli arxeologik davrlarga oid yodgorliklarni o'z ichiga oladi: tosh davri manzilgohlaridan tortib, o'rta asrlar shahar madaniyatiga qadar [7].

Vodiyni antik davriga oid Kalamishtepa (Darvozaqirtepa), Sultonobod, Qo'rg'ontepa, Qilichqabr II, To'rtko'l, Oqbura, Ko'hna Quva yodgorliklari Farg'ona vodiysining antik davri kichik shaharlari yoki shaharchalarining qoldiqlaridir [7]. Xususan, Chust madaniyati yodgorliklari (miloddan avvalgi II–I ming yilliklar) Arxeologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki Farg'ona hududidan qadimgi tosh davrining barcha bosqichlarga tegishli yodgorliklar aniqlangan. Jumladan: M.Qosimov hamda bir qator yirik arxeolog olimlar tomonidan O'rta paleolit bosqichi, Mezolit davri singari tosh davriga tegishli materiallar hamda Mustye, Obishir

kabi yirik madaniyatlar o'rganilib fanga yangilik sifatida taqdim etilgan. Bundan tashqari Farg'ona hududlari O'rta Osiyoning bronza davri arxeologiyasida ham alohida o'rin egallaydi.

Qo'qon shahri X asrdan boshlab yirik savdo va madaniyat markazi sifatida rivojlanib, XIII asrda mo'g'ullar bosqinida katta zarar ko'rgan. Shahar XVIII–XIX asrlarda Qo'qon xonligi (1709–1876) poytaxti sifatida qayta yuksalib, o'z qudratining cho'qqisiga yetgan [10]. Xonlik XIX asrning birinchi yarmida hududiga hozirgi O'zbekistonning katta qismi, Janubiy Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Xitoyning bir qismini o'z ichiga olgan. Bu tarix Qo'qon hududidagi arxeologik yodgorliklarning turli davrlarga mansub qatlamlarini o'z ichiga olishini belgilaydi.

2. Tepaqo'rg'on yodgorligining "Qo'qon" davlat muzey-qo'riqxonasidagi o'rni

"Qo'qon" davlat muzey-qo'riqxonasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-maydagi 443-son Qarori bilan Farg'ona viloyatidagi Qo'qon madaniyati tarixi davlat muzeyi negizida tashkil etilgan [11]. Muzey-qo'riqxona tarkibiga 6 ta muzey hamda 4 ta madaniy meros yodgorligi kiradi. Ular qatorida: "Qo'qon" davlat muzey-qo'riqxonasining asosiy binosi (Xudoyorxon o'rdasi), Amaliy san'at muzeyi (Jome' masjid-madrasasi), Buyuk allomalar muzeyi, Adabiyot muzeyi, Muqimiy hujra-muzeyi, Hamza Hakimzoda Niyoziyning uy-muzeyi, Norbo'tabiy madrasasi, Dahmai Modarixon maqbarasi, Dasturxonchi madrasasi, hamda Tepaqo'rg'on arxeologik yodgorligi kabilar kiradi [5].

Tepaqo'rg'on arxeologik yodgorligi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-dekabrda imzolagan PQ-4068-son Qarorida ko'zda tutilgan moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatiga kiritilgan [12]. 2019-yilda esa moddiy madaniy meros obyektlari milliy ro'yxatiga rasmiy ravishda kiritilgan. Bu esa yodgorlikka o'z navbatida davlat tomonidan rasmiy muhofaza maqomini berdi.

2022-yilda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar va qazuv ishlari natijasida yodgorlik arkining tuzilishi aniqlangan [6]. Ushbu qazishmalar Tepaqo'rg'onning ilmiy jihatdan o'rganilishida muhim qadam bo'lib, yodgorlikning qadimgi o'rda o'rnida joylashganligi va Qo'qon shahrining eng qadimiy asosi ekanligi ilmiy jihatdan tasdiqlangan.

3. Respublika Prezidentining Tepaqo'rg'onga tashrifi va muzeylashtirish masalasidagi tashabbuslari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2024-yil 11-iyul kuni Farg'ona viloyatiga navbatdagi tashriflarida, Qo'qon shahridagi bir qancha obyektlarni ko'zdan kechirdi. Tashrif davomida Prezident Tepaqo'rg'on arxeologik yodgorligini ham bevosita ko'zdan kechirdi [6].

Davlatimiz rahbari mazkur arxeologik yodgorlikni rekonstruksiya va konservatsiya qilish, va "ochiq osmon ostidagi muzey"ga aylantirish tashabbusini bildirdi. Prezident bu borada o'z shaxsiy mulohazalarini bildirib jumladan: "Ziyorat o'zi xayrli ish. Lekin millat tarixini ziyorat qilish yanada ulug' ne'mat. Bu yerda ana shunday sharoit yaratish kerak. Bu odamlarga, ayniqsa,

yoshlarimizga ham bilim, ham g'urur beradi. Qo'rg'on haqida chet ellardagi manbalarni o'rganib, ma'lumotlarni boyitib borish ham zarur" [6].

Prezidentning ushbu tashabbus va ko'rsatmalari Tepaqo'rg'on yodgorligini muzeylashtirish ishlarini yangi bosqichga ko'tarishga asos bo'ldi. Shuningdek, tashrif doirasida Farg'ona turizm halqasini yaratishga oid konsepsiya taqdim etildi. Ushbu konsepsiya doirasida Tepaqo'rg'on yodgorligi ham Farg'ona viloyatining sayyohlik salohiyatini oshirishda muhim rol o'ynashi ko'zda tutilgan [6].

4. Arxeologik yodgorliklarni muhofaza qilish va muzeylashtirish sohasidagi islohotlar

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda arxeologik meros sohasida bir qancha muhim huquqiy hujjatlar qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 21-sentabrdagi 792-son "Arxeologik tadqiqotlarni tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi Qarorida arxeologik yodgorliklarni ochiq osmon ostidagi muzeylarga aylantirishning ilmiy asosini tayyorlash, arxeologik tadqiqotlarda xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish va zarur kadrlarni tayyorlash vazifalari belgilangan [13].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-maydagi PQ-261-son "Muzeylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida 2023–2026-yillarga mo'ljallangan rejaga asosan arxeologik yodgorliklarni konservatsiya qilish, ochiq osmon ostidagi muzeylar tashkil etish va arxeologik yodgorliklarni sayyohlik maskanlariga aylantirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilangan [14].

2023-yil oktyabr oyida O'zbekistondagi beshta arxeologik yodgorlikda muzeylashtirish ishlari boshlandi: "Chilonzor Oqtepa" (Toshkent), "Dalverzintepa" (Surxondaryo), "Mingtepa" (Andijon), "Sheroz qal'a" (Samarqand), "Qo'yqirilgan qal'a" (Qoraqalpog'iston). Bu loyiha uchun Madaniy meros agentligi tomonidan sezilarli miqdorda mablag' ajratilgan [15]. Mazkur tajriba Tepaqo'rg'on uchun ham yo'l ochadi.

Shuningdek, 2024-yil davomida madaniy meros sohasida bir qancha muhim qarorlar qabul qilindi: Vazirlar Mahkamasining 20.05.2024-yildagi 295-son qarori, 25.03.2024-yildagi 154-son hamda 22.04.2024-yildagi 227-son qarorlari moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatiga yangi qo'shimchalar kiritishga oid bo'ldi [16]. 2024-yil avgust oyida esa O'zbekiston YUNESKO ning ICCROM tashkilotiga 138-a'zo davlat bo'lib kirdi [16].

5. Muzeylashtirish muammolari

Tepaqo'rg'on yodgorligini muzeylashtirish jarayonida bir qancha jiddiy muammolar mavjud.

Birinchi muammo — yodgorliklarni noqonuniy xo'jalik faoliyatidan muhofaza qilish. 2024-yilda O'zbekistonda 117 ta madaniy meros obyektiga zarar yetkazilgani, bu natijada 30 ta jinoiy, 87 ta ma'muriy ish qo'zg'atilgani va zararining qariyb 346 mlrd so'mni tashkil etgani aniqlandi [17]. Bu holat Qo'qon hududidagi yodgorliklar, jumladan Tepaqo'rg'on uchun ham xavf mavjudligini ko'rsatadi.

Ikkinchi muammo — arxeologik yodgorliklarni konservatsiya qilish va saqlash. Madaniy meros agentligi direktori o'rinbosari Tursunali Kuziyevning ta'kidlashicha, "tarixiy yodgorliklarga nisbatan tahdid saqlanib qolmoqda" va jamiyatning munosabati o'zgarmas ekan, bu obyektlarni to'liq muhofaza qilib bo'lmaydi [17]. Tepaqo'rg'onni zamonaviy konservatsiya va restavratsiya usullari bilan saqlash, unga yog'in-sochin, harorat o'zgarishi va boshqa tashqi omillar ta'sirining oldini olish zarur.

Uchinchi muammo — malakali kadrlar va texnik jihozlanish. Arxeologik yodgorliklarni ilmiy o'rganish va muzeylashtirish uchun maxsus tayyorgarlik ko'rgan mutaxassislar zarur. Muzey-qo'riqxonalar va viloyat muzeylarida arxeolog-restoratorlar, muzey texnologlari sonining etarli emasligi professional sifatda yodgorliklarni saqlash va namoyish etishga to'sqinlik qilmoqda.

To'rtinchi muammo — keng jamoatchilikni yodgorlik bilan tanishtirish. Hozirda sayyohlar va mahalliy aholi uchun Tepaqo'rg'on haqida yetarli darajada targ'ibot-tashviqot ishlari olib borilmayapti. O'tgan yili Farg'onaga 430 ming xorijiy turist kelgan, biroq viloyatning tarixi va tabiiy salohiyatiga nisbatan bu ko'rsatkich past baholanmoqda [6].

6. Muammolarni hal etish yo'llari

Tahlil asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi.

Birinchidan, Tepaqo'rg'on yodgorligida tizimli arxeologik qazishma ishlarini davom ettirish va ilmiy hisobotlarni nashr etish lozim. 2022-yildagi qazishmalar boshlang'ich natijalar berdi, endi yodgorlikni to'liq o'rganish zarur.

Ikkinchidan, Prezidentning 2024-yil 11-iyuldagi ko'rsatmasiga muvofiq, yodgorlikni "ochiq osmon ostidagi muzey"ga aylantirish loyihasini tezda ishlab chiqish va amalga oshirish zarur [6]. Beshta yodgorlikni muzeylashtirish bo'yicha boshlangan dastur [15] Tepaqo'rg'onni ham o'z ichiga olishi uchun tegishli mablag' va resurslar jalb etilishi lozim.

Uchinchidan, xalqaro hamkorlikni kengaytirish muhim. O'zbek-Xitoy qo'shma arxeologik ekspeditsiyasi Farg'ona vodiysida Mingtepa yodgorligida samarali ish olib borgan kabi [8], Tepaqo'rg'on uchun ham xalqaro hamkorlik asosida tadqiqotlar tashkil etilishi mumkin. Yaponiyaning JICA tashkiloti 2023–2024-yillarda madaniy meros arxivini raqamlashtirish uchun 430 ming AQSh dollari ajratgan [16] — xuddi shu tarzda Tepaqo'rg'on uchun ham xalqaro moliyaviy yordam olish mumkin.

To'rtinchidan, Farg'ona turizm halqasi konsepsiyasi doirasida Tepaqo'rg'onni sayyohlik marshruti tarkibiga kiritish zarur. Bu yodgorlikni keng jamoatchilikka taqdim etishning eng samarali yo'llaridan biridir [6].

XULOSA

Qo'qon shahri va uning atrofidagi arxeologik yodgorliklar, jumladan Tepaqo'rg'on, Farg'ona vodiysining boy tarixiy merosini o'zida mujassamlashtirgan muhim obyektlardan biri hisoblanadi. Tepaqo'rg'on arxeologik yodgorligi "Qo'qon" davlat muzey-qo'riqxonasining rasmiy

tarkibiy qismi sifatida davlat muhofazasiga olingan bo'lib, 2019-yilda milliy ro'yxatga kiritilgan va 2022-yilda arxeologik qazuv ishlari olib borilgan.

2024-yil 11-iyulda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Tepaqo'rg'onga shaxsan tashrif buyurib, uni "ochiq osmon ostidagi muzey"ga aylantirish tashabbusini bildirishi yodgorlikni muzeylashtirish tarixida muhim burilish nuqtasi bo'ldi. Ushbu tashabbus davlat darajasida qo'llab-quvvatlash garovi va kelajakda Tepaqo'rg'onning to'liq ilmiy o'rganilishi hamda jamoatchilikka taqdim etilishining asosi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida madaniy meros muhofazasi sohasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar — 2019-yilgi 792-son Qaror, 2022-yilgi PQ-261-son Qaror, 2024-yildagi bir qancha normativ hujjatlar va YUNESCONing ICCROM tashkilotiga a'zolik — Tepaqo'rg'on kabi yodgorliklarni yanada chuqurroq o'rganish va muzeylashtirish uchun qulay huquqiy va moliyaviy asos yaratmoqda.

Kelgusida Tepaqo'rg'onda tizimli arxeologik tadqiqotlarni yo'lga qo'yish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish, Farg'ona turizm halqasi tarkibiga kiritish va yodgorlikni ochiq osmon ostidagi muzey sifatida jamoatchilikka taqdim etish — bularning barchasi Qo'qonning o'tmish tarixini tiklash va kelajak avlodlarga munosib holda yetkazib berishning asosiy yo'llaridir.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

1. Termiz tumanidagi tarixiy-madaniy yodgorliklardan turizm maqsadlarida foydalanish // Cyberleninka. — URL: <https://cyberleninka.ru>
2. Farg'ona vodiysi geografiyasi // O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. — Toshkent, 2002.
3. Farg'ona viloyati ziyoratgohlarining tarixi // Educational Research in Universal Sciences. — 2023. — №17.
4. Qo'qon qadimiy hunarmandlar shahri // otpusk.uz. — URL: <https://otpusk.uz/uz/uzbekistan/sights/kokand>
5. "Qo'qon" davlat muzey-qo'riqxonasi tarkibiga nimalar kiradi? // society.uz. — 2023. — 25-oktabr. — URL: <https://society.uz/uz/news/detail/news/735>
6. Farg'onada turizm halqasi tashkil etiladi // O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. — 2024. — 11-iyul. — URL: <https://president.uz/oz/lists/view/7395>
7. Arxeologiya // Onlayn Ensiklopediya. — URL: <https://uzsmart.uz/encyclopedia/encyclopedia/37341.html>
8. O'zbek-Xitoy qo'shma xalqaro arxeologik ekspeditsiyasi Mingtepa tadqiqotlari // FarDU Ilmiy xabarlar. — URL: <https://journal.fdu.uz>
9. "Qo'qon" davlat muzey-qo'riqxonasi tarixi // society.uz. — 2023. — URL: <https://society.uz/uz/news/detail/news/731>
10. Qo'qon xonligi tarixining o'rganilishi // Cyberleninka. — URL: <https://cyberleninka.ru>

11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-maydagi 443-son Qarori — "Qo'qon" davlat muzey-qo'riqxonasini tashkil etish to'g'risida. — URL: <https://lex.uz/ru/acts/-4358328>

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-dekabrdagi PQ-4068-son Qarori "Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". — URL: <https://lex.uz/docs/-4113465>

13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 21-sentabrdagi 792-son Qarori "Arxeologik tadqiqotlarni tubdan takomillashtirish to'g'risida". — URL: <https://lex.uz/docs/-4524476>

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-maydagi PQ-261-son Qarori "Muzeylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida". — URL: <https://lex.uz/docs/-6040013>

15. O'zbekistondagi beshta arxeologik yodgorlik ochiq osmon ostidagi muzeyga aylantiriladi // gazeta.uz. — 2023. — 27-oktabr. — URL: <https://www.gazeta.uz/oz/2023/10/27/archaeological-site/>

16. Xalqaro madaniy yodgorliklar va tarixiy maskanlarni asrash // O'zbekiston Madaniy meros agentligi. — 2025. — URL: <https://gov.uz/oz/madaniymeros/news/view/42028>

17. "Afsuski, tarixiy yodgorliklarga nisbatan tahdid saqlanib qolmoqda" — Madaniy meros agentligi // gazeta.uz. — 2025. — 30-mart. — URL: <https://www.gazeta.uz/oz/2025/03/30/monuments/>